



**TURIZM SOHASIDA OMMAVIY MADANIYATNING
YETISHMOVCHILIGI**

O'ktamova Omina Ziyoiddin qizi

Oriental universiteti "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

[*omina@gmail.com*](mailto:omina@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sohasida ommaviy madaniyatning yetishmasligi, unda inson omilining nechog'lik ahamiyatliligi hamda mazkur kamchiliklarni bartaraf etishda ma'naviyatning muhimligi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Ommaviy madaniyat, turizm, inson omili, ma'naviyat, ijtimoiy targ'ibot, muhit, o'zgarishlar.*

ТУРИЗМ И ОТСУТСТВИЕ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Октамова Омина Зиёиддиновна

Университет «Oriental», направление подготовки «Туризм и

гостеприимство»

Студентка 2 курса

[*omina@gmail.com*](mailto:omina@gmail.com)

***Аннотация:** В данной статье рассматривается отсутствие массовой культуры в сфере туризма, значимость человеческого фактора, а также роль духовности в преодолении указанных недостатков.*

***Ключевые слова:** массовая культура, туризм, человеческий фактор, духовность, социальная пропаганда, окружающая среда, изменения.*

LACK OF MASS CULTURE IN THE FIELD OF TOURISM



Oktamova Omina Ziyoiddin qizi

Oriental University, Department of “Tourism and Hospitality”

2nd-year student

omina@gmail.com

***Abstract:** This article discusses the lack of mass culture in the field of tourism, the importance of the human factor, and the significant role of spirituality in addressing these shortcomings.*

***Keywords:** Mass culture, tourism, human factor, spirituality, social promotion, environment, changes.*

KIRISH

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada daromad keltirish bilan birga, davlatning xalqaro maydondagi imijini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois turizm sohasida ommaviy madaniyatni rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Turizm bu nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki madaniy almashinuv jarayonidir. Turistlar boshqa davlat yoki hududga tashrif buyurganda, ular o‘sha joyning: muomala madaniyati, xizmat ko‘rsatish sifati, milliy qadriyatlar, tozalik va tartibi bilan tanishadilar. Shu sababli ommaviy madaniyat turizm rivojida muhim o‘rin tutadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizmda ommaviy madaniyatning ahamiyati shundaki, u turizm sohasining taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etadi. U xalqning madaniyatini, estetik didini ko‘rsatib beruvchi vosita hisoblanadi. Ommaviy madaniyat o‘zi nima degan savolga biz quyidagicha javob bersak bo‘ladi:

Ommaviy madaniyat bu - jamiyatda keng tarqalgan xulq-atvor me‘yorlari, muomala qoidalari, estetik did va ijtimoiy qadriyatlar majmui hisoblanadi. U insonlarning kundalik hayotdagi o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi hamda umumiy madaniy muhitni shakllantiradi. Demak bundan kelib chiqib ayta olamizki,



ommaviy madaniyat jamiyatda xulq-atvor me'yorlari, estetik qarashlar va ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Turizm sohasida esa bu omil xizmat ko'rsatish sifati, muomala madaniyati va turistik muhitning jozibadorligida namoyon bo'ladi [2].

Turizm sohasida ommaviy madaniyat yetarli darajada rivojlanmayotganligiga bir nechta asosiy sabablar bor. Masalan ba'zi joylarda xizmat ko'rsatish madaniyati unchalik yuqori emas. Turizm sohasida ishlayotgan xodimlarining hammasi ham yetarli kasbiy bilim va muomala madaniyatiga ega emas. Bundan tashqari ayrim hollarda aholi turizmga nisbatan jiddiy mas'uliyat bilan yondashmaydi. Madaniy targ'ibot ishlari ham hamma joyda yetarli darajada olib borilmaydi [3].

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil va sintez usulidan, statistik tahlildan, hamda kuzatuv usulidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agar turizm sohasida ommaviy madaniyat yetishmasa, bu ko'plab salbiy oqibatlarga olib keladi. Masalan, turistlarda salbiy taassurot paydo bo'lishi mumkin. Agar ular sifatli xizmat yoki yaxshi muomala ko'rmasa, bu joy haqida yomon fikr bilan qaytadi. Natijada turistik hududlarning jozibadorligi pasayadi. Bu esa mamlakatning xalqaro obro'siga ham salbiy ta'sir qiladi va oxir-oqibat turizm daromadlari kamayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ommaviy madaniyatning sustligi xizmat ko'rsatish darajasining past bo'lishiga olib keladi. Ba'zi hollarda turistlarga nisbatan befarqlik kuzatiladi. Milliy madaniy merosdan to'liq va samarali foydalanilmaydi. Turistik hududlarda tartib-intizom ham yetarli darajada bo'lmasligi mumkin [4].

Bu muammoni hal qilish uchun birinchi navbatda turizm sohasida ishlayotgan xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish kerak. Chunki sifatli xizmat ko'rsatish ko'p jihatdan xodimlarning malakasiga bog'liq. Shuningdek,



muomala madaniyati va mijozlarga hurmat bilan yondashish tamoyillarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega [5].

Bundan tashqari, jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni faollashtirish zarur. Aholi orasida turizm madaniyatini shakllantirish, mehmondo'stlik an'alarini rivojlantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini oshirish kerak. Yana bir muhim jihat — xizmat ko'rsatishning aniq standartlarini joriy etish va ularga amal qilinishini nazorat qilishdir. Shu yo'llar orqali turizm sohasida ommaviy madaniyatni rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish mumkin [6].

Turizm sohasini boshqa tarmoqlardan ajratib turadigan asosiy jihati bu — insonlar bilan bevosita ishlashdir. Ya'ni, bu yerda eng muhim omil texnika yoki bino emas, balki insonning o'zi hisoblanadi. Xodimlarning kasbiy bilimi qanchalik muhim bo'lsa, ularning muomala madaniyati, odob-axloqi va nutq ravonligi ham shunchalik ahamiyatlidir. Chunki turist eng avvalo munosabatni eslab qoladi. Inson omilini kuchaytirish uchun xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish kerak. Ular uchun turli trening va seminarlar tashkil etish, muomala madaniyati va xizmat ko'rsatish qoidalarini o'rgatish foydali bo'ladi. Shuningdek, xizmat ko'rsatishda aniq standartlarni joriy etish va ularga amal qilish ham muhim hisoblanadi [7].

2025-yil O'zbekistonga 11,7 mln nafar chet ellik turistik maqsadlarda kelgan. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan qariyb 47 foizga ko'p. Ushbu davrda O'zbekistonga kelayotgan afg'onistonliklar soni 6,5 barobarga, xitoyliklar soni 3,8 barobarga, turkmanistonliklar soni 87 foizga oshgan. MDH mamlakatlarini hisobga olmaganda eng ko'p sayyoh Afg'onistondan kelayapti [8]. Bizning mamlakatimizga kelayotgan turistlar avvalo madaniyatimizga, qadriyatlarimizga, tariximizga qiziqish bildirgani uchun tashrif buyurishadi. Turizm rivojida ma'naviyat juda katta rol o'ynaydi. Biz esa ommaviy madaniyatimizni go'zal shaklda namoyon eta olmasak, turistlarning bizning yurtga bo'lgan hurmati ham kamayib boradi. Shuning uchun ommaviy madaniyatni yuksaltirishimiz, mehmonlarga ya'ni turistlarga nisbatan o'zaro hurmatda bo'lishimiz nafaqat o'zligimizni balki yurt sha'nini ham ko'rsatib beradi. Turistlar aynan shu o'ziga xoslik va samimiyatni qadrlashadi.



Milliy qadriyatlarimizga hurmat, mehmondo'stlik an'analarini saqlash va madaniy merosimizni asrab-avaylash turistik muhitni yanada jozibador qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy targ'ibot ishlari orqali aholining turizmga bo'lgan munosabatini yaxshilash mumkin. Odamlarda ekologik madaniyatni, tozalik va tartib-intizomni saqlash mas'uliyatini kuchaytirish turizmning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigon bo'lsak, agar inson omili, ma'naviyat va madaniy qadriyatlar rivojlantirilsa, turizm sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va sohani barqaror rivojlantirish imkoniyati katta bo'ladi [10].

Turizm sohasida ommaviy madaniyatning yetishmovchiligi soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun inson omilini rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va ijtimoiy targ'ibotni kuchaytirish zarur. Kompleks yondashuv asosida turistik xizmatlar sifatini oshirish va mamlakatning turistik jozibadorligini yuksaltirish mumkin. Turizm sohasida ommaviy madaniyat yetishmasligi sohaning barqaror rivojlanishiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar xizmat ko'rsatish madaniyati past bo'lsa, xodimlarning malakasi yetarli bo'lmasa yoki turistlarga nisbatan e'tibor yetarli bo'lmasa, bu turistlarning salbiy taassurotlariga, hududlarning jozibadorligining kamayishiga va hatto mamlakatning xalqaro imijiga zarar yetishiga olib keladi. Shu bois, muammoni bartaraf etishning eng muhim yo'li bu inson omilini rivojlantirishdir. Xodimlarni malakali qilish, ularning madaniy va ma'naviy saviyasini oshirish orqali xizmat sifati yaxshilanadi. Shuningdek, ma'naviyat va milliy qadriyatlarni mustahkamlash, mehmondo'stlik an'analari va madaniy merosni asrab-avaylash turizm muhitini yanada jozibador qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy targ'ibot va ma'rifiy ishlar orqali aholining turizmga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Shu yo'l bilan nafaqat turistlarning qoniqishi oshadi, balki turizm daromadlari ham ortadi va mamlakatning turistik jozibadorligi mustahkamlanadi [11].



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sharipov, B. (2018). Turizm nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: “O‘zbekiston”.
2. Islomov, A. (2020). Turizm va xizmat ko‘rsatish madaniyati. Toshkent: “Fan va ta’lim”.
3. Smith, M. K. (2015). Issues in Cultural Tourism. London: Routledge.
4. Richards, G. (2018). Cultural Tourism: A Review of Recent Research and Trends. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 36, 12–21.
5. Umarov, S. (2019). Ommaviy madaniyat va turizm rivoji. Toshkent: “Ilm-fan nashriyoti”.
6. UNWTO (World Tourism Organization). (2018). *Tourism and Culture Synergies*. Madrid: UNWTO.
7. UNWTO (World Tourism Organization). (2022). *International Tourism Highlights*. Madrid: UNWTO.
8. <https://kun.uz/news/2026/01/19/2025-yilda-ozbekistonga-kelgan-xorijliklar-soni-keskin-oshdi-eng-kop-tashrif-qaysi-davlatlardan>
9. Karimov, I.A. (2008). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
10. Mirzaev, Sh.R. (2019). Turizm nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.
11. Kotler, P., Bowen, J., & Makens, J. (2017). *Marketing for Hospitality and Tourism*. Pearson Education.